



UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA G'AFUR G'ULOMNING "SHUM BOLA" ASARINI O'QITISH USULLARI

Mamutova Madinaxon Shavkat qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institute Ellikqal'a fakulteti O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumta'lim maktablarida G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasini o'qitishning samarali usullari tahlil qilinadi. Asarni o'rganishda interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati, o'quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirishdagi o'rni hamda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishdagi imkoniyatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: "Shum bola", adabiy ta'lim, interfaol metodlar, SWOT tahlil, galereya texnologiyasi, obraz tahlili, kitobxonlik.

Аннотация. В данной статье анализируются эффективные методы преподавания рассказа Гафура Гулама «Шум Бола» в средних школах. Подчеркивается важность использования интерактивных методов в изучении произведения, их роль в развитии художественного мышления учащихся и их потенциал в формировании культуры чтения.

Ключевые слова: «Шум Бола», литературное образование, интерактивные методы, SWOT-анализ, галерейные технологии, анализ изображений, чтение.

Annotation. This article analyzes effective methods of teaching Gafur Ghulam's story Shum Bola in secondary schools. The importance of using interactive methods in studying the work, its role in developing students' artistic thinking, and its potential for forming a reading culture are highlighted.

Key words: Shum Bola, literary education, interactive methods, SWOT analysis, gallery technology, image analysis, reading.

KIRISH

Bugungi kunda adabiyot ta'limi oldida turgan muhim vazifalardan biri o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, badiiy asarni mustaqil tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini tarbiyalashdan iborat. Bu borada G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasi alohida ahamiyat kasb etadi. Asarda xalq hayoti, bolalar dunyosi, insoniy fazilatlar va murakkab ijtimoiy munosabatlar badiiy mahorat bilan aks ettirilgan. Qissa o'quvchilarni nafaqat kuldiradi, balki ularni mushohada yuritishga, yaxshilik va yomonlikni farqlashga undaydi.

Nodir iste'dod sohibi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, faylasuf shoir, nosir G'afur G'ulom xalqimiz va butun ezgu niyatli bashariyatning qalbiga quloq tuta olgan, ularning dardini dildan his eta bilgan olim, shoir va yozuvchi edi. G'afur G'ulom ijodiy merosining salmoqli qismini nasriy asarlari, xususan qissalari tashkil etadi. Mazkur qissalarni davr va shaxs talqini nuqtai nazaridan o'rganish



yoshlar tarbiyasi, madaniy merosga munosabatini shakllantirish, XX asr voqeligining badiiy talqinlarini yangicha qarashlar asosida o'rganish negizida estetik didini kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zotan, "... biz hali yurtimizni, uning o'ziga xos tarixi, madaniyati, ulug' olimu ulamolarini, bebaho ma'naviy merosimizni to'liq o'rganganimiz yo'q¹".

Pedagog olim V.P.Bespalko pedagogik tizimni pedagogik texnologiyaning asosi ekanligini e'tirof etgan holda uni quyidagi unsurlaridan iboratdir deya ta'kidlaydi:

- 1) o'quvchi;
- 2) ta'lim -tarbiyaning maqsadi;
- 3) ta'lim - tarbiya mazmuni;
- 4) o'quv jarayoni;
- 5) o'qituvchi yoki texnik vositalar;
- 6) ta'lim-tarbiyaning tashkiliy shakllari².

"Shum bola" qissasini o'qitishda an'anaviy metodlar bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi. Chunki interfaol metodlar o'quvchini darsning passiv tinglovchisidan faol ishtirokchisiga aylantiradi. Adabiyot darslarida interfaol usullardan foydalanish o'quvchilarning tahliliy fikrlash, mustaqil xulosa chiqarish va muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Qissani o'rganishda SWOT tahlil metodidan foydalanish samarali natija beradi. Bu metod orqali o'quvchilar Shum bola obrazining kuchli va zaif tomonlarini, imkoniyatlari hamda duch kelgan muammolarini tahlil qiladilar. Natijada asar qahramonining xarakter xususiyatlari chuqurroq anglanadi. Mazkur usulning afzalligi shundaki, u o'quvchilarda tanqidiy fikrlash va baholash kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, galereya texnologiyasi ham asarni o'qitishda muhim o'rin tutadi. Bu metod asosida sinf kichik guruhlariga bo'linadi va har bir guruh qissaning ma'lum bir qismi yuzasidan taqdimot tayyorlaydi. Tayyorlangan materiallar sinf devorlariga joylashtiriladi va o'quvchilar ular bilan tanishib chiqadilar. Ushbu metod o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, hamkorlikda ishlashi va o'z fikrini erkin ifoda etishiga yordam beradi.

Asarni o'qitishda klaster, sinkveyn va Venn diagrammasi kabi grafik organayzerlardan foydalanish ham maqsadga muvofiqdir. Masalan, Venn

¹ Mirziyoyev Sh.M. 2017 yilning 15 iyun kuni Toshkent shahrida bo'lib o'tgan: "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlangan nutq. // Xalq so'zi, – 2017 yil 16 iyun, № 119 (6813).

² Bespalko V.P. Slagaemye pedagogicheskoy texnologii \M.: Pedagogika,1989. – s.6-7.



diagrammasi yordamida Shum bola va Omon obrazlarini qiyoslash mumkin. Bunday topshiriqlar o'quvchilarning taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Interfaol metodlar qo'llanilgan darslarda o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishi ortishi va bilimlarni mustahkamroq o'zlashtirishi kuzatiladi.

Qissani o'rganish jarayonida rolli o'yinlardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar asar qahramonlari roliga kirib, voqealarni jonli tarzda namoyish etadilar. Bu usul qahramon ruhiyatini anglash, nutq madaniyatini rivojlantirish va asar mazmunini chuqurroq o'zlashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, Sariboy, Hoji bobo va Shum bola ishtirokidagi voqealarni sahnalashtirish o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasi o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida muhim o'rin tutuvchi asarlardan biridir. Uni interfaol metodlar asosida o'qitish o'quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantiradi, kitobxonlik madaniyatini shakllantiradi va mustaqil fikrlash kompetensiyalarini takomillashtiradi. Shu sababli adabiyot darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish davr talabi hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. 2017 yilning 15 iyun kuni Toshkent shahrida bo'lib o'tgan: "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlangan nutq. // Xalq so'zi, – 2017 yil 16 iyun, № 119 (6813).
2. Bospalko V.P. Slagaемые pedagogicheskoy texnologii \M.: Pedagogika,1989. – s.6-7.
3. G'afur G'ulom. Shum bola. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.